



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar - mart oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar - mart oylarida shahar korxonalari tomonidan 24,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (78,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 19,0 trln. so'mni tashkil etdi.





B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,1 % ga o'sishi kuzatildi. Gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 52,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 0,8 % ga hamda tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash - 0,7 %, pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,3 % ini tashkil etdi.


**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar- mart oylarida, % da)**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati



Tabiiy gaz



Neft



Shagʻal



Chaqiq tosh




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar- mart	2023- yil yanvar- mart	Farqi +/-
Neft, ming t.	155,3	170,6	15,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	9 146,3	8 398,3	-748,0
Gaz kondensati, ming t.	193,2	171,9	-21,3
Chaqiq tosh ming t.	34,1	24,0	-10,1


Shagʻal t.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,0 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar- mart oylarida, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,6 % ni (2022- yilning yanvar- mart oylarida – 11,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,8 % (21,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,8 % (28,1 %) va quyi texnologiyalisi – 39,8 % (39,2%)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 31,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,1 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,9 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,3% (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2023- yilning yanvar- mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3912,9 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (37,7 % ga oshgan), 217,0 tonna osh tuzi (8,5 % ga oshgan), 14 mln tonna pivo (2,0 %) hamda 5,1 ming tonna mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (31,4 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

O'simlik yog'li (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
------------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar- mart	2023- yil yanvar- mart	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	15,5	37,1	21,6
Paxta kalavasi, ming tonna.	9,6	8,6	-1,0
Margarin va yormalar tonna.	708,0	176,9	-264,4
Pivo – mln litr	13,7	14,0	0,3
Traktorlar - dona	58,0	18,0	-40,0
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	111,9	114,1	2,2
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	3775,0	3425,0	-350,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	526,9	257,2	-269,7

Metallurgiya sanoati

(yanvar- mart)



**FHI
% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 14,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 33,2% ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,8 % va ishlab chiqarish hajmi 2671,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar- mart oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,4 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 72,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 539,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- mart oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,9 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,9 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2638,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- mart oylarida)

FHI
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 26,2 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1658,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- mart oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1126,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- mart oylarida)



FHI
% da



2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 121,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 394,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar- mart oylarida)

2022- yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 10,4 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 944,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar- mart oylarida)




2022 - yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 34,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 33,6 % ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 71,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar- mart oylarida)



2022- yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- mart oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 31,4 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 109,3 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 5946,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar- mart oylarida)

2022- yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 141,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- mart oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi 111,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 828,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar- mart oylarida

trln.
so'm




FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,6 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar- mart olaryida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar- mart oylarida, % da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	122,2	148,2	26,0
Issqlik energiyasi, ming gkal	5115,1	3937,3	-1177,8
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so 'm.	215,9	261,2	45,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar- mart oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar – mart oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m	36,9	45,7	8,8
(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	68,6	87,9	19,3
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash, mlrd. so‘m	61,4	87,5	26,1

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 28,1 % ga ko‘paydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash 42,4 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 23,8 % ga o‘shish kuzatildi.

Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,0 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9,3 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2023- yil 1 aprel holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 12,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida 383 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 285 ta loyiha bo'yicha 3001,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 35,5 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2023-yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 857 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yil yanvar- mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 6,8 martaga kamaydi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2022-yil yanvar- mart	2023-yil yanvar- mart
Loyihalar soni, birlik	363	285
Korxonalar soni, birlik	105	116
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	2 824,4	3 001,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	38,1	35,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	451	857

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16

(71) 203-88-16